

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.M.Bozorova	
Sayyid Sharif Jurjoniyning ontologik va gnoseologik qarashlari.....	115
L.S.Sultonova	
Sharq allomalarining ilmiy merosida bag'rikenglik va murosa madaniyati masalasi va uning yurtimiz taraqqiyotida tutgan o'rni.....	119
U.K.Kurbanova	
Abu Ismoil Abdulloh Ansoriy tasafuviy qarashlarining falsafiy tahlili	124
M.H.Mo'minova	
Ibn Sino asarlari va risolalarining ilm-fan taraqqiyotida tutgan o'rni	128
K.J.Ochilova	
Imom At-Termiziya oid tadqiqotlarning ilmiy tahlili	132
B.X.Karimov	
Ongni boshqarish falsafasi.....	136
R.S.Raupova, Sh.Bobokalonova	
Abu Ali Ibn Sino buyuk faylasuf va gumanist olim	141
P.X.Qaxorov	
Zamonaviy jamiyatda inson qadri va axloqiy me'yorlarning o'zgarishi	147
U.M.Paxriddinov	
Globalashuv jarayonlarining O'zbekistondagi mehnat migratsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-falsafiy tahlili	152
Z.B.G'ulomov	
Dezinformatsion ziddiyatlar sharoitida yolg'on axborotlarni ijtimoiy fikr va jamoatchilik nazorati asosida tartibga solish istiqbollari.....	158
A.A.Tojiddinov	
Abu Ishoq Kalobodiy ilmiy merosining zamonaviy tadqiqotlarda o'rganilishi masalalari.....	164
G.A.Qamariddinova	
"Rashahotu aynil-hayot" asaridagi rashhalarda jamiyat rivojlanishiga doir g'oyalarning falsafiy tahlili	172
H.H.Yuldashxodjaev	
Musoxonxoja Dahbidiy asarlarida Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi g'oyalarning qiyosiy tahlili.....	175
H.H.Yuldashxodjaev	
Musoxonxoja Dahbidiy asarlarida Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi g'oyalarning qiyosiy tahlili (2-qism).....	180
Z.I.Narziyev	
Aziziddin Nasafiyning "Tanzil" asari - tasavvuf falsafasiga oid muhim manba	185
M.M.Mamasaliyev	
Postmodern jamiyatda o'zgalarga toqatlilik qadriyatlarining falsafiy-intellektual asoslari.....	189

SIYOSAT

T.A.Azizov	
Favqulodda ekologik vaziyatlarni bartaraf etishga oid davlat siyosatini amalga oshirish mexanizmlarining xorij tajribalarini qo'llash imkoniyatlari.....	193
S.U.Yuldashev	
Davlat boshqaruvida ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning ratsionallashtirish	197
O'.N.Ahmedova	
Kuchli ijtimoiy siyosat va ma'naviy tarbiya strategiyasi	201
X.R.Ikramov	
Yangi O'zbekistonda fuqarolik xizmati sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini modernizatsiyalash zaruriyati.....	205
A.M.Abjalov	
Jamoat xavfsizligi tizimida axborot texnologiyalarni joriy etishning ijtimoiy-siyosiy mohiyati	210
G.B.Umarova, A.Nurullaeva	
Mahalla – totuvlik va bag'rikenglik omili: Markaziy Osiyo mintaqasi tajribasi	214
S.S.Yakubov	
Kanada: milliy birlikka erishish tajribasi	218



UO'K: 299.53

“RASHAHOTU AYNIL-HAYOT” ASARIDAGI RASHHALARDA JAMIYAT RIVOJLANISHIGA DOIR G'OYALARNING FALSAFIY TAHLILI**ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ИДЕЙ ОБ ОБЩЕСТВЕННОМ РАЗВИТИИ В РАШХИ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «РАШАХОТУ АЙНИЛ-ХАЁТ»****PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF IDEAS ABOUT SOCIAL DEVELOPMENT IN THE RASHXAS FROM THE WORK “RASHAHOTU AYNIL-HAYOT”****Qamariddinova Gulrux Akmal qizi** Buxoro muhandislik-texnologiya instituti “Ijtimoiy fanlar va jismoniy fanlar” kafedrası
o'qituvchisi**Annotatsiya**

Maqolada Faxruddin Ali Safiyning “Rashahotu aynil-hayot” asaridan o'rin olgan mutasavviflarning rashhalarida jamiyatning taraqqiy topishiga doir g'oyalari hamda qarashlari falsafiy jihatdan tahlil etilgan. Xojagon silsilasi vakillarining rashhalarida, asosan, tinchlik, vatanparvarlik hamda ma'rifatli jamiyat barpo etish to'g'risidagi qarashlari bayon etilgan.

Аннотация

В статье философски анализируются идеи и взгляды на развитие общества в рашхах суфиев, которые включены в труд Фахруddина Али Сафи «Рашхату айнил-хаёт». В своих трудах представители рода Ходжагон в основном выражают свои взгляды на мир, патриотизм и создание просвещенного общества.

Abstract

The article analyzes the ideas and views of the development of society in the rashhas of the mystics from Fakhruddin Ali Safi's work “Rashahotu aynil-hayot”. The rashhas of the representatives of the Khojagon line mainly express their views on building a peaceful, patriot and enlightened society.

Kalit so'zlari: rashha, jamiyat, ma'rifat, barkamollik, rox, mutasavvif, kategoriya, tolerantlik, g'oya, komillik, bag'rikenglik

Ключевые слова: рашха, общество, просвещение, совершенство, рок, мистик, категория, терпимость, идея, совершенство, толерантность

Key words: rashha, society, enlightenment, perfection, rock, mystic, category, tolerance, idea, perfection, tolerance

KIRISH

Mutasavviflarning aytib o'tgan rashhalarining barchasi tinchlikka, ahillikka va ma'rifatli jamiyat barpo etishga oid qarashlari murosa falsafasiga uyg'un bo'lib, Vatanimiz ravnaqi, yurtning tinchligi, el farovonligi, ijtimoiy hamkorlik hamda millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi bunyodkor g'oyalarning amalga oshishiga xizmat qiladi. Ularning ning ijtimoiy va axloqiy qarashlari turli xil diniy aqidaparastlik va fundamentalistik g'oyalarga qarshi kurasha oladigan bunyodkor g'oyalardandir. “Rashahtu aynil-hayot” asarida ismlari zikr etilgan yuzdan ziyod mutasavviflarning xalqimiz oldidagi xizmatlari tariximiz uchun beqiyosdir, hozirgi kunda mutasavviflarning falsafiy - ijtimoiy qarashlari, nasihatlar, puma'no rashhalari yosh avlod qalbi va ongida ezgulik, ma'naviy komillikka chorlovchi g'oyalarni singdirishda muhim ahamiyat kasb etadi, barkamol shaxsning ma'naviyatini shakllantirishga va milliy istiqlol g'oyalarini takomillashtirishda mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Qolaversa, ma'rifatli jamiyatni barpo etish bugungi kundagi ayni kerakli maqsadlardan biri bo'lib kelmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Barkamol shaxsni tarbiyalashda avvalo, ilm va tarbiya uyg'unlikda bo'lishi lozim. Mutasavviflarning fikriga ko'ra, qalb Allohning nuri bilan yoritilgan taqdiridagina inson haqiqiy ma'naviy yuksalishga erishadi. Qalbning yorug'ligi insonning ichki dunyosini boyitadi, uning aql va ruhiy qudratlari orqali o'zini namoyon qiladi. Shuningdek, qalbning tozaligi insonning boshqa odamlar bilan munosabatlarini ham ijobiy ta'sir qiladi. Pok qalbgga ega bo'lgan inson doimo

FALSAFA

mehnatsevar, halol va axloqiy balandlikka ega bo'ladi. Hazrat Abdulxoliq G'ijduvoniyan boshlangan etti pir silsilasidagi barcha mutasavviflar jamiyat taraqqiyotiga alohida e'tibor qaratganlar. Jamiyat taraqqiy etishining birinchi omili sifatida, insonlarning komillikka intilishi, xalq orasidagi ezgu amallarning ko'payishi nazarda tutiladi. Rashha. Oytur erdilarkim: "Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniyy quddisa sirruhu oytibdurlarkim, xalqdin og'urliq ko'tarmak kerak va bu muyassar bo'lmas, magar halol kasb bila, "dastba kor, dilba yor", degan so'z xojagon qaddasallohu ta'olo arvohahum tariqlarida amri muqarrar turur". [1] Hazrat Abdulxoliq G'ijduvoniyy hayot yo'llari davomida, asosan, insonlarga yaxshilik qilish, xalqning o'g'irini engil qilish, jamiyatni ilm-ma'rifat orqali yanda yuksaltirishga harakat qilganlar. Orif Revgariy ta'kid etadilar: "Barcha rox, yo'l, ravishda oxirgi maqsadga erishmoq ixlosli bandalar uchun faqat shu tarzda amalga oshgay. Bir maqom, darajadan ikkinchi maqomga ko'tarilmoq ahli naqliya va kashfiya uchun og'ir riyozatlar orqali hosil bo'ladi; zero, hoyu-havas va nafs ammora yuqoriga ko'tarilmog'iga to'siqdir va ushbu qusurlar, illatlar barcha mo'min dilining buzilmog'iga bois hisoblanur". [2] Orif Revgariy kamolot sari intilayotgan jamoani ikki guruhga:

- ahli naqliya, ya'ni naqlar asosida amal qiluvchilar;
- ahli kashfiya, ya'ni ilohiy kashf asosida amal qiluvchilarga ajratadi.

Bu ikki toifaning ham bir darajadan ikkinchisiga ko'tarilishi, yuksalishi og'ir riyozatlar chekmog'i orqali amalga oshadi. Bu yo'lda asosiy to'siq hoyu-havas va nafs ammora ekanligini Orif Revgariy ta'kidlamog'dalar. Hoyu-havas va nafs ammora barcha mo'minlar qalbining sustlashiga asosiy sabablardandir. Rashhalarda asosan, vaqtning g'animat bilish haqida ko'p ta'kidlaganlar. Vaqt falsafiy kategoriyadir. Vaqt - olamning atributi bo'lib, barcha obyektlar mavjudligining davomiyligini va holatlar almashuvining izchilligini xarakterlaydi. Vaqt makon bilan chambarchas bog'liq. Chunki har qanday mavjudlikning asosiy shakllari makon va vaqtdir. Vaqt o'z-o'zicha moddiy o'zgarishlardan ayri holda mavjud bo'lmaydi. Xuddi shu kabi, davomiylik kasb etmaydigan, o'tmishdan kelajakka o'zgarmaydigan moddiy tizim va jarayonlarning bo'lishi mumkin emas. Vaqt materiyaning yashash shakli sifatida moddiy dunyodagi jarayonlarning uzluksizligini xarakterlaydi. Obyektiv ravishda birin-ketin bo'lib o'tgan, bo'layotgan va kelgusida bo'ladigan jarayonlar yig'indisi dunyoning uzluksiz yashashi va rivojlanishi asosida yotadi. Vaqt bir o'lchovli bo'lib, faqat bir tomonga, ilgari qaray boradi.[3]

NATIJA VA MUHOKAMA.

Xoja Ali Romitaniyning ham rashhalarida jamiyatning taraqqiyotiga xizmat qiluvchi omillar aks etgan:

"Avvalig'i mas'ala ulkim: "Siz va biz kelguvchi va ketguvchiga xizmat qilurmiz va siz taomda takalluf (o'zni qiyamoq) etmassiz va biz takalluf etarmiz va odamlar sizdan ozodliq etarlar va bizdin gilada tururlar. Sabab ne turur?". [4] Hazrati Azizon javobda oytilarkim: "Xizmat etib minnat quyguvchilar ko'p turur va xizmat eta turib minnatdor bo'lguvchilar kam tururlar. Jahd qilingkim, xizmat eta turub, minnatdor bo'lguvchidin bo'lung, to har kishi sizdin gilada bo'lmasun". [5] Insonning jamiyatga xizmat qilishi, ularga yordam berishidan murod, nimagadir umidvor bo'lishlik emas, sidqidildan bajarishdir.

Rashha. Olardin so'rdilarkim: "Iymon ne turur?" [6] Oytilarkim: "Kandan Va payvastan", ya'ni uzmak va payvand etmak. O'z san'atlarig'akim, bofandalik erdi, munosib javob oytilar. Iymon (arab. aman- ishonch va e'tiqod) - murakkab tafakkur tarzi va kuchli xotiraga ega inson ongi va ruhiyasining nodir hodisasi. Muayyan fikr, oliy g'oyaning haqiqatligiga komil ishonchdan iborat shaxsdagi alohida ruhiy holat. Iymon inson ongi va ruhiyasiga singgan, undan mustahkam o'rin olgan g'oya va dunyoqarash sifatida qudratli harakatlantiruvchi kuch, inson irodasini mustahkamlash vositasidir. Iymon olamni, undan odam o'z o'rnini va maqomini bilish, jamiyatlashgan odam inson sifatida namoyon bo'la olishining zarur shartidir. Iymon tufayli odam ruhi ezgulikni qaror toptirish tomon yo'nalish olib, ijtimoiy-siyosiy hayotning insoniylashuvida muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, har qanday g'oya, dunyoqarash inson iymon va e'tiqodi (ixlosi) hamda odamlar uyushmalari (davlati, siyosiy partiyalari, jamoalari va.b.) maslagiga aylangandagina harakatlantiruvchi moddiy va ruhiy kuch sifatida namoyon bo'ladi.[7] Qachonki inson haqiqiy iymonga erishadi? Barcha yomon illatlar, nafs kabi insoniylarning yo'q qiluvchi ishlarni qalbidan olib tashlasa, hamda, odob-axloq, insonparvarlik kabi ezgu amallarni qayta joylasagina, barkamollikka erisha boshlaydi.

“Rashahotu aynil-hayot” asarida keltirilgan Xoja Ahror Valiyning qarashlarida, asosan, jamiyat va siyosatga oid juda ko‘plab fikrlari o‘rin olgan:

“Oytur erdilarkim: “Jam’iyatning asbobini hammasin muhayyo etubmiz. Kishi kerakkim sa’y etsa. Agar asbobi jam’iyatni tafrika va bekorlikga sarf etsalar ulug’ ayb bo’lur. Va bizga hargiz g’urbatlardakim, bu ishning talabiga ketub erduk, ikki ibrik issiq suv tahorat uchun betashvish qo’lga kirmadi.[8] Shayx Bahouddin Umarning suhbatlaridin vuzuvu tahorat uchun goho shaharga borur erduk. Xotirga kelur erdikim, ne erda Shayx etsalarkim, shul bo’lur agar ul miqdor tahoratxonada issiq suv fuqarolarning tahorat etmagiga muyassar bo’lsa. Ammo muyassar bo’lmas erdi. Biz xujrayu sham’ va tahorat suyi va tahorat joyi va hammom va mo-yahtojkim, ichmak va emak va kiymak hammasini kishlarda asxoblar uchun muhayyo etub qo’yubmiz. Mashog’ilning hujumidin avval fursat bag’oyat g’animat turur”. [9] Rashhada Xoja Ahror Valiy jamiyatning barcha asboblari – ya’ni, resurslar, vositalar va sharoitlar, uni samarali va barqaror ishlashi uchun sarflanishi lozim. Agar bekorlikka sarflansa, katta ayb bo’ladi. Jamiyat va xalqning osoyishtaligi uchun barcha imkoniyatlar o’z o’rnida qo’llanishi kerak. [10] Masalan, ibodatlarni amalga oshirish uchun tahoratxonalar odamlarga qulay maskanlarda joylashishi lozimki, hech kimga mashaqqat bo’lmasin, mashg’ulotlarga (darslarga) kech qolmasin. Bu erda, vaqt masalasiga ham urg’u berib o’tilgan.

XULOSA

Faxruddin Ali Safiy o’z asarlarida hamda ilmiy-amaliy faoliyatida ham inson hamisha jamiyatning tinchligi va osoyishtaligi, ijtimoiy barqarorligi yo’lida beminnat xizmat qilishi, bu yo’lda vujudga kelgan sinovlar va muammolarni adolat va insonparvarlikka tayangan holatda kurashishi lozimligini ko’rsatib o’tgan. Faxruddin Ali Safiy o’zining ijtimoiy-siyosiy qarashlarida din va tasavvuf vakillari, etuk piri murshidlar fakat tarkidunyochilik asnosida emas, balki, jamiyatda taraqqiyparvar fikrlar va sog’lom muhit barqaror bo’lishi yo’lida hukmdorlar, amaldorlar bilan muloqotda bo’lib turishlari, ularni siyosatiga “tuzatuvchi” sifatida aralashishlari lozimligi kabi fikrlarni ilgari surgan. Mutasavvif “Rashahatu aynil-hayot”, “Latoyif ut-tavoif”, “Odob ul-ashob” kabi asarlarida hamda ijtimoiy-siyosiy qarashlarida ijtimoiy hamkorlik, insonparvarlik, tinchliksevarlik, dinlararo bag’rikenglik (tolerantlik) kabi umuminsoniy g’oyalarga amal qilgan. Faxruddin Ali Safiy nafaqat o’z davrining, balki keyingi davrlarning ham ijtimoiy-siyosiy muammolarini to’g’ri anglab, holis talqin qila olgan etuk jamiyatshunos bo’lganligini ham ko’rishimiz mumkin. Mutasavvifning asarlarida etuk piru-murshidlar kun-u tun faqat o’z kamolotlari yo’lida, zikru-ibodatdagina bo’lishlari to’g’ri emasligi, balki, ular o’z faoliyatlari bilan jamiyatning kichik bo’lsa-da muammolarini hal etish payida bo’lmoqliklari maqsadga muvofiqligi ta’kidlangan.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug’ati, 2-tom. T.: Fan
2. Falsafa: qomusiy lug’at (tuzuvchi va mas’ul muharrir Q. Nazarov). T.: O’zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2004
3. Faxruddin Ali Safiy. Rashahotu aynil-hayot. T.: Abu Ali Ibn Sino, 2004
4. G.N.Navro’zova, D.J.Akobirova. Orif Revgariy. T.: Paradigma, 2018.
5. Gulyamov, A. A. (2024). JAMIYATIMIZNING IJTIMOY-IQTISODIY, MA’NAVIY-MADANIY SOHALARIDA OILANING ROLI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 36(2)
6. Saloxov, A., & Qamariddinova, G. A. (2023). BUXORO JADIDLARINING TA’LIM-TARBIYAGA OID G’OYALARINING NAZARIY-AMALIY ASOSLARI. *SCHOLAR*, 1(28)
7. Jurakulovich, S. J. (2024). THE ROLE OF SPIRITUALITY IN THE IMPLEMENTATION OF THE DEVELOPMENT STRATEGY OF THE NEW UZBEKISTAN. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(11), 307-311.
8. Sayfiddin Sayfulloh. Xojagon-naqshbandiya (asoslar va rashhalar). T.: O’zbekiston
9. Шодиев, Ж. (2022). Илк уйғониш даврида—комил инсонни шакллантириш ватарбиялашда тасаввуф таълимотининг ўрни. *Scientific Bulletin of NamSU-Научный вестник НамГУ-NamDU ilmiy axborotnomasi-2022-yil_4-son*, 229, 12.
10. Umid Mavlyanov. Faxruddin Ali Safiy. T.: Mumtoz so’z